

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM PSIXOLOGIYASI YONDOSHUVLARI

Xudoyberdiyeva Salomat Najmudinovna

Sirdaryo viloyati, Xovos tuman 4-maktab amaliyotchi psixolog

Fayzullayeva Xolida Axmadjon qizi,

Guliston Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ta'lism psixologiyasi yondoshuvlariga oid masalalar ko'rilgan.*

Tayanch tushunchalar: O'rganish mohiyati va turlari, musiqa, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari, sensorli (his etish), motorli (harakatli), kognitivli (bilish) jarayonlari.

Yosh o'sishi jarayonida boladagi barcha xulq va faoliyat o'zgarishlari o'rganish omillari bo'lib hisoblanadi. O'rganish ma'lum bir maqsadga erishishga imkon beruvchi faoliyat va xulqdagi tashqi (jismoniy) va ichki (psixik) o'zgarishlarni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'rganish tashqi va ichki faoliyat (xulq-atvor)dagi maqsadga muvofiq o'zgarishlarda namoyon bo'ladi.

O'rganish – bu faoliyatni maqsadga muvofiq qat'iy o'zgar-tirishdir. U avvalgi faoliyat natijasida Yuzaga keladi.

O'rganishda tushunchalarni ifodalash vositasi sifatida til katta ahamiyatga ega. So'zlar orqali ifodalangan tushunchalarni o'rganish odamning butun insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida to'plagan bilimlarini o'zlashtirishni anglatadi.

Predmetli harakatdan ideal harakatga tasavvur va tushunchalar bilan o'tish fikrlash orqali amalga oshiriladi. U har doim ma'lum bir masalani hal etishga qaratiladi.

Shunday qilib, insonning tushuncha va aqliy harakatlarni o'zlashtirishi uni fikrlashga o'rgatishni ham talab qiladi.

Insonning butun fikrlash (aqliy va intellektual) faoliyatining pirovard maqsadi ishlab chiqarish va ijtimoiy hayot uning oldiga qo'ygan turli amaliy masalalarni hal etishdan iborat. Amaliy masalalarni hal etish uchun esa zarur malaka kerak bo'ladi, ya'ni to'laqonli intellektual o'rganish malaka bilan boyitiladi. O'rganish turli darajada o'tuvchi murakkab ko'p pog'onali: sensorli (his etish), motorli (harakatli), kognitivli (bilish) jarayondan iborat. O'rganish kuzatish asosida amalga oshadi. Mashqlarni anglash va o'z-o'zini nazorat qilish ongli ravishda qo'yilgan maqsad va vazifalar tomonidan amalga oshiriladi.

O'rganish insonning boshqa odamlar, atrof-muhit bilan muloqot va o'zaro harakati natijasida Yuzaga kelishi mumkin. Lekin, bilim va malakani tabiiy egallash bilan bir qatorda, o'rganish ko'p hollarda maqsadga yo'naltirilgan holda maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bunday maqsadga yo'naltirilgan o'rganishni tashkil etish – ta'lism deb ataladi. Uning eng keng tarqalgan turi –

maktab ta'lifi. Lekin ko'plab boshqa muassasalarda ham ta'lim beriladi, masalan, rasm chizish, musiqa, o'z-o'ziga xizmat qilish ko'nikmalari va boshqalarga bolalar bog'chasida o'rgatiladi. Ta'lim elementlari oilaviy tarbiyada kuzatiladi (jamiyatda o'zini to'g'ri tutish) va hokazo.

O'quv jarayonida bilim, malaka, ko'nikmalar passiv emas, balki o'qituvchi va o'quvchining faol ishtirokida beriladi. Ta'limni o'rganuvchi va o'rgatuvchi orasidagi o'zaro faol harakat jarayoni, deb tavsiflash mumkin, buning natijasida o'rganuvchida ma'lum bir bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanadi. Bu jarayonni boshqarib, sifatli qilish, natijada eng samarali darajaga erishish pedagogika fanining (nazariya, metodika va amaliyot) asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ko'chirish (tatbiq etish) – pedagogik psixologiyaning markaziy masalalaridan biridir. O'zlashtirilgan faoliyatni yangi masala-larni hal etishga to'g'ri va muvaffaqiyatli tatbiq etish xatolarni kamroq qilish, yangi faoliyat turini tez o'zlatirishni anglatadi. Inson o'zlashtirgan faoliyatini to'g'ri qo'llay oladigan ob'ektlar doirasi qanchalik keng bo'lsa, mavjud ko'nikmalar asosida u hal qila oladigan masalalar doirasi ham shunchalik keng bo'ladi.

Oddiyroq qilib aytganda, inson harakatlarining «ko'chishi» qanchalik keng va aniq bo'lsa, u shunchalik ko'p narsa o'rganadi, uning o'qish natijalari shunchalik sermahsul bo'ladi. Bilim unga o'z faoliyatida shunchalik samarali yordam beradi.

Harakatning yangi ob'ektga to'g'ri va muvaffaqiyatli «ko'chishi» shartlari va vazifalari ko'p jihatdan bilimga bog'liq. Ular insonning amaliy va anglash faoliyati uchun muhim bo'lgan tashqi olamning o'ziga xos xususiyatini aks ettiradi. Tegishli bilimlarning shakllanishi va o'zlashtirilishi yangi ob'ekt, vaziyat va masalalarga duch kelgan insonning maqsadga muvofiq va samarali harakat qilishi uchun dastlabki shartdir.

Ijodiy tafakkur uchun asosiysi – «qolip»dan chiqish, voqelikni faqat odatiy tushuncha va tasavvurlardagidek emas, balki har jihatdan atroficha qamrab olishdir.

Ijodiy tafakkur mantiq doirasi bilan chegaralanmagan va shuning uchun narsalar haqidagi tasavvurlarning har qanday, eng noodatiy, fantastik o'zaro munosabatlari, birlashuvi va qayta yaralishiga yo'l qo'yadi. Fantaziyasiz ijod yo'q.

Umumiy psixologiyadan ma'lumki, mavjud ma'lumotlar, bilimlar yoki tushunchalardan foydalanish, ularni narsalarning mohiyatini aniqlashda qo'llash, ma'lum bir nazariy va amaliy masalalarni muvaffaqiyatli hal qila olish qobiliyati malaka, ya'ni mavjud bilim va ko'nikmalardan to'g'ri va samarali foydalanish, deb ataladi.

Ko'pincha o'quvchilarning o'zlashtirilgan tushunchalarni aniq masala yechimiga qo'llashi qiyin bo'ladi. Bu holatda tushunchalar faoliyat va anglash vositasiga aylanmaydi. Ular keraksiz yuk bo'lib qoladi, amaliyot bilan bog'lanmaydi, malaka asosi bo'lib shakllanmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Nishonova E.T. Bolalar psixik taraqqiyoti muammolari bo'yicha psixologik maslahatlar berish. T., 1997.
2. Nishonova E.T. Bolalar psixodiagnostikasi. T., 1998.
3. Pedagogika G' Y. K. Babanskiy tahriri ostida. T., 1993.
4. Pedagogika tarixidan xrestomatiya O.Xasanbaeva. T., 1992.
5. Qodirov B.R. Sinf zukkolarini tanlash metodikasi (Yosh iste'dodlarini izlaymiz): Metodik qo'llanma. T., 1998.
6. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.

